



## ТА'ЛИМДА DIFFERENSIAL YONDASHUVNING АНАМИЯТИ ЗНАЧЕНИЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ THE IMPORTANCE OF A DIFFERENTIATED APPROACH IN EDUCATION

***Babayeva Maxfuza Abduvaitovna***

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti*

*“Maktabgacha va bosh ‘lang ‘ich ta ‘lim nazariyasi”*

*kafedrasi dosenti v.b.(PhD)*

*Termiz (O‘zbekiston)*

*e-mail: [maxfuza\\_babayeva@tues.uz](mailto:maxfuza_babayeva@tues.uz)*

*Тел.: +998992019044*

***Бабаева Махфуза Абдуваитовна***

*Термезский университет экономики и сервиса*

*и.о. доцента кафедры «Теория дошкольного и*

*начального образования» (PhD)*

*Термез (Узбекистан)*

*e-mail: [maxfuza\\_babayeva@tues.uz](mailto:maxfuza_babayeva@tues.uz)*

***Babayeva Maxfuza Abduvaitovna***

*Termez University of Economics and Service*

*Acting Associate Professor of the Department*

*of Theory of Preschool and Primary Education (PhD)*


*Termez (Uzbekistan)*


*e-mail: [maxfuza\\_babayeva@tues.uz](mailto:maxfuza_babayeva@tues.uz)*

**Rezyume.** Maqolada ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslari, amaliy yo'llari va metodik tavsiyalari yoritilgan. Differensial yondashuv har bir ta'lim oluvchining individual imkoniyatlarini, bilim darajasini va qiziqishlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali ta'lim oluvchilar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishlari va yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

**Tayanch so'zlar:** differensial, differensial ta'lim, differensial yondashuv, guruhda ishlash, ta'lim, metod.

**Резюме.** В статье освещаются теоретические основы, практические пути и методические рекомендации по реализации дифференцированного подхода в образовании. Дифференцированный подход позволяет эффективно организовать учебный процесс с учетом индивидуальных возможностей, уровня знаний и интересов каждого обучающегося.





Благодаря данному подходу учащиеся могут в полной мере раскрыть свой потенциал и добиться высоких результатов.


**Ключевые слова:** дифференциальный, дифференцированное обучение, дифференцированный подход, работа в группе, образование, метод.


**Abstract.** The article highlights the theoretical foundations, practical ways, and methodological recommendations for implementing a differentiated approach in education. A differentiated approach makes it possible to effectively organize the learning process by taking into account each learner's individual abilities, level of knowledge, and interests. Through this approach, students can fully realize their potential and achieve better results.

**Keywords:** differential, differentiated education, differentiated approach, group work, education, method.

Hozirgi davrda tabaqalashtirilgan yondashuv muammosining ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Differensial yondashuv — bu ta'limni jarayonini har bir ishtirokchining qiziqishlari, qobiliyati, ehtiyoji, bilimi va rivojlanish darajasini hisobga olish orqali tashkil etishdir. Ya'ni hamma ta'lim oluvchilarga bir xil yondashuv emas, balki har biriga moslashtirilgan, farqlangan o'qitishni anglatadi. **Differentsiatsiya** – (lotincha differentia – farqlanish, farq), ixtisoslashish – dastlab bir xil elementlardan tashkil topgan tizimning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishini tushuntiruvchi jarayondir. Differensial yondashuvni amalga oshirish uchun o'yinlar, musobaqalar va olimpiadalar, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yashirin iste'dodlari va kuchli tomonlarini ochishga yordam beradigan turli pedagogik vaziyatlardan foydalaniladi. Shunday qilib, differensial yondashuvning ajralmas qismi va sharti shaxslararo munosabatlarni o'rganishdir. Ushbu yondashuv guruh va shaxs, kattalar va bolalar, jamoa va guruh o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Ushbu yondashuvning samaradorligi bevosita ta'lim tashkilotidagi ijodiy hamkorlik muhitiga va uni boshqarishga demokratik qarashlarga bog'liqdir [4; 5; 6].

AQShlik pedagog Karol Ann Tomlinson o'z tadqiqotlarida differensial yondashuv to'g'risida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Differensial yondashuv har bir ta'lim oluvchining ehtiyojini inobatga olgan holda o'qituvchining rejasini moslashtirish san'atidir” (Tomlinson, 2001). Uning tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishda bu uslub muhim rol o'ynashini, differentsiatsiya - ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini ham, o'quv materialining mazmunini ham hisobga olishga yordam beradigan pedagogik yondashuv ekanligini ta'kidlaydi. Tomlinson darsning to'rtta asosiy komponentini ta'lim oluvchilar ehtiyojiga qarab moslashtirishni tavsiya qiladi: mazmun - ta'lim oluvchilar nimani o'rganishi va qanday qabul qilishi (o'qish darajasi turlicha bo'lgan materiallar); jarayon- ta'lim oluvchilar ma'lumotni qanday o'zlashtirishi (juftlikda, guruhda yoki individual ishlash), mahsulot- ta'lim oluvchilar o'z bilimlarini qanday namoyish etishi (loyiha yoki taqdimot qilish), o'quv muhiti - sinfdagi sharoitning ta'lim oluvchilar ehtiyojiga mosligi.





Differensial ta'lim muammosi 19-asrda o'qituvchi Jozef Zikkenger (1858-1930) tomonidan tadqiq etilgan. U Mannheim ta'lim tizimini (Mannheim shahri nomi bilan bog'liq) tashkil etishda sinf-dars tizimini saqlab qolgan holda, talabalarni ularning qobiliyatlari, intellektual rivojlanish darajasi va tayyorgarlik darajasiga qarab guruhlarga ajratgan. Ushbu guruhlar past, o'rta va yuqori darajadagi ta'lim oluvchilardan iborat bo'lgan [1].

Vygotskyning tadqiqotlari differensial ta'lim uchun asos bo'ladi, chunki u har bir ta'lim oluvchining rivojlanish darajasini hisobga olish orqali ularning yanada yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu g'oya differensial yondashuvlarda qo'llanilib, talabalarni o'z darajasiga mos va qiziqarli o'quv faoliyatlariga jalb qilish uchun nazariy asos beradi [3]. Fin pedagoglaridan biri Riikka Kyllönen shunday fikr bildiradi: "Har bir bola o'z vaqtida ochiladi. O'qituvchi esa shunchaki unga qulay muhit yaratib berishi kerak". Tailandda olib borilgan tadqiqotda differensial yondashuvning ta'lim oluvchilarning matematik bilimlarini oshirishdagi samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turli darajadagi topshiriqlar va o'quv materiallari [2]


Zankovanning ta'kidlashicha, maktabdagi har bir fanning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki bolaning rivojlanishi barcha fanlarni o'zlashtirish natijasi sifatida shakllanadi, eng ahamiyatsiz tuyulgan fan esa bitta bola uchun kasbiy muvaffaqiyatning asosi bo'lishi mumkin. [7].


K.S. Bajin nashrida shunday deyiladi: ayrim hollarda maktab amaliyotida differensial yondashuv sinfni qobiliyatli ta'lim oluvchilar, ortda qolayotgan ta'lim oluvchilar va o'rtacha darajadagi ta'lim oluvchilarga ajratish orqali amalga oshiriladi. [9].

Hozirgi kunga kelib differensial ta'lim dolzarb muammo tusini olmoqda. Bu esa ta'lim tizimining ta'lim oluvchilarni faol rivojlantirish, yangi bilimlarni yetkazish, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgani bilan bog'liq bo'lib, pedagogdan ushbu muhim va zarur yondashuv asosida ijodkorlik bilan ishlashni talab etadi [8].

Rabunskiy ushbu parametrlarni birlashtirib, ta'lim oluvchilarni turlarga ajratish orqali ta'lim jarayonini shaxslashtirishni (differensial yondashuv) maqsad qilgan. Differensial yondashuvning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, kuchli ta'lim oluvchilarni yanada rivojlantirish, qiynalayotgan ta'lim oluvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatish, o'qitishda samaradorlikni oshirish. Ta'limda differensial yondashuvning afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin: har bir ta'lim oluvchi e'tibordan chetda qolmaydi, ta'lim oluvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi, dars samaradorligi ko'tariladi, qobiliyatli ta'lim oluvchilar uchun qo'shimcha imkoniyat yaratiladi, qiynalayotgan ta'lim oluvchilar ortda qolib ketmaydi.

Differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuvning mazmuni shundan iboratki, u har bir ta'lim oluvchining real o'quv imkoniyatlariga mos ravishda majburiy o'quv natijalariga erishishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, u shaxsning bilish, qadriyat, ijodiy, kommunikativ va badiiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning haqiqiy imkoniyatlariga mos ravishda hamda ularning "yaqin rivojlanish muhiti"ga yo'naltirilgan







holda tashkil etiladi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash uchun ularning real o'quv imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bu imkoniyatlarni baholash mezonlari sifatida ta'lim oluvchini yaxlit shaxs sifatida tavsiflovchi belgilar qo'llaniladi: o'zlashtirish darajasi, bilishga bo'lgan qiziqish va albatta o'rganish qobiliyati. Ushbu belgilar har biri o'qitish samaradorligini sezilarli darajada aks ettiradi. Biroq asosiy ko'rsatkich - o'zlashtirish darajasidir, chunki aynan shu omil o'rganish qobiliyati va bilishga qiziqishning shakllanganlik darajasiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yondashuv ta'limning vazifalari hamda psixologik-pedagogik qarashlariga mos keladi .

**Xulosa.** Differensiatsiya aslida barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim samarali bo'lishiga intilishni anglatadi, bu yondashuv ta'limda bir qolipdagi o'qitish uslubidan voz kechib, har bir ta'lim oluvchining individual ehtiyojlariga moslashishni nazarda tutadi.

### Adabiyotlar

1. Teshabayeva Z. S. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida differensial yondashishga asoslangan ta'lim jarayoni. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. 2025-yil, fevral, №2-son. 366-369 b.
2. Palvanbaeva N. R. Differensial yondashuv orqali matematikani o'rgatish. International journal of recently scientific researcher's theory. Volume 3. 83-88-b.
3. Qodirov F. E. Ta'limda differensial yondashuvlar, talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish usullari. Zamonaviy dunyoda innavatsion tadqiqotlar. Nazariya va amaliyot ilmiy masofaviy, onlayn konferensiya.
4. Иохвидов В.В. А.П. Склярова и З.А. Зосимова о повышении эффективности урока // В сборнике: Теория и практика образования в современном мире. Материалы Международной научной конференции. – 2012. – С. 62-64.
5. Иохвидов В.В. Совершенствование процесса обучения и его эффективность в трудах М.Н. Скаткина // Вестник Костромского государственного университета им. Н.А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. Социокинетика. – 2014. – Т. 20, № 3. – С. 37-40.
6. Иохвидов В.В., Веселова В.Г. Вопросы повышения эффективности урока в первые послевоенные годы // Проблемы и перспективы развития образования в России. – 2011. – № 8. – С. 27-34.
7. Индивидуальные варианты развития младших школьников [Текст] / Под ред. Л. В. Занкова, М. В. Зверевой.— М.: Педагогика, 1973. – 312 с.
8. Захаренко, Т. Ю. Становление и развитие дифференцированного обучения в педагогической теории и практике России (начало XIX в. -1936 г.) [Текст] / Т. Ю. Захаренко // Сибирский педагогический журнал. 2007. №8. – С. 287-292.





9. Захаренко, Т. Ю. Становление и развитие дифференцированного обучения в педагогической теории и практике России (начало XIX В. -1936 г.) [Текст] / Т. Ю. Захаренко // Сибирский педагогический журнал. 2007. №8. – С. 287-292.

